



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

INGLIZ TILINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI

Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi
Andijon davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning tutgan o'rni fundamental tadqiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga oid qarorlari ijrosi doirasida ta'limdagi raqamli transformatsiyaning afzalliklari Andijon davlat universiteti misolida keng tahlil qilindi. Maqolaning qismlarida sun'iy intellektning va mobil platformalarning dolzarbligi ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, ingliz tili, innovatsiya, platformalar, metodika, masofaviy o'qitish, sun'iy intellekt, lingvistik kompetensiya, Gamifikatsiya, LMS tizimlari.

ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Абдусамадова Ма'руфа Хайрулло кизи
Андижанский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной статье исследуется фундаментальная роль цифровых технологий и онлайн-платформ в современном процессе обучения английскому языку. В рамках реализации постановлений Президента Республики Узбекистан по популяризации изучения иностранных языков подробно анализируются преимущества цифровой трансформации в образовании на примере Андижанского государственного университета.

Ключевые слова: цифровое образование, английский язык, инновации, платформы, методика, дистанционное обучение, искусственный интеллект, лингвистическая компетенция, гамификация.

THE IMPORTANCE OF MODERN DIGITAL PLATFORMS IN TEACHING ENGLISH

Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi
Andijan State University, Doctoral Student

Abstract

This article provides a fundamental study of the role of digital technologies and online platforms in the modern process of teaching English. Within the framework of implementing the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on popularizing foreign language learning, the advantages of digital transformation in education are extensively analyzed using the example of Andijan State University.

Keywords: digital education, English language, innovation, platforms, methodology, distance learning, artificial intelligence, linguistic competence, gamification.

Yigirma birinchi asr — axborot va yuqori texnologiyalar asri sifatida insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga tub burilishlar yasadi. Bugungi kunda xorijiy tillarni egallash, ayniqsa global muloqot tili hisoblangan ingliz tilini o'rganish O'zbekiston davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori bu sohadagi islohotlarning huquqiy va strategik asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu berilgan qarorga binoan ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini va masofaviy ta'lim resurslarini jadal tatbiq etishi o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali sifat darajasini xalqaro standartlarga moslashtirish asosiy vazifalardan biri qilib qoyilgan. Jadalik bilan rivojlanayotkan platformalarning bugungi kunda dars jarayonini interaktiv shaklga keltirish, talabalarning o'z ustida mustaqil tarzda ishlashlari uchun ko'nikmasini rivojlantirishda va o'quv jarayonini individuallashtirishda juda ham katta ahamiyatga egadur.

Yosh o'sib kelayotkan avlod o'rtasida ingliz tilini o'qitish nafaqat til bilim darajasini oshiradi, balki o'quvchilarda tort javhada rivojlanishga olib keladi yani matini o'qib tushunishiga, eshigan holatida anglashiga hamda erkin nutq bilan javob qaytarishga va yozishga talabalar qodir bola oladilar.

Bundan tashqari raqamli savodxonlikni, tanqidiy fikrlashni va axborotni saralashni ham shakllantiradi. Mazkur maqolaning dolzarbligi an'anaviy metodika va zamonaviy raqamli vositalarning sintezi orqali o'qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati xalqaro va milliy pedagogika fanida keng tadqiq etilgan. Olimlardan biri G. Motteram ozining tahlili davomida aniqladiki bular shunchaki yordamchi emas balki kerakli platmormalardir. U aytishicha texnologiya til o'rganishni sinf xonasidan tashqariga olib chiqadi va uni kundalik hayotning bir qismiga aylantiradi.

S. Benson esa "avtonom o'rganish" (learner autonomy) nazariyasini ilgari surib, raqamli platformalar talabaga o'z o'quv jarayonini mustaqil boshqarish, o'z xatolari ustida ishlash va shaxsiy o'quv traektoriyasini chizish imkonini berishini isbotlagan. Mark Warschauer o'zining "Computer-Assisted Language Learning" (CALL) asarida texnologiyalarning evolyutsiyasini tahlil qilar ekan, multimedia vositalarining kognitiv jarayonlarni tezlashtirish xususiyatiga alohida to'xtalgan.

Bizming O'zbekiston metodikasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Yo'ldashev takidlashicha ustoz va murabiylar platmormalar va darslarni uyg'inashtira olsalar talabalar o'rtasida til o'rganish jarayoni tezlashishiga olib keladi, va albatta natija unumdor bo'las. Qambarova. Nning fikricha talabalar orasida video darsliklar ko'rish jarayonida ularda ko'rish xotirasi kuchayib boradi bu esa o'z navbatida inson miyasi skayner orqali kop hajimli ma'lumotlarni oson yod olib qolish imkonini beradi. N. Azizxo'jayeva "Pedagogik texnologiyalar" asoschisi xisoblanib mazkur darsliklarda yangi interaktiv usular yordamida yangi so'zlarni yod olish uchun oson yolari ko'rsatilgan hamda o'quvchilarni munosib usulda rag'batlantirish ham ko'rsatilgan.

METODOLOGIYA

Biz olib borgan tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-pedagogik kuzatuv va empirik ma'lumotlarni to'plash metodlaridan foydalandik. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat universitetida o'tkazildi.

Tadqiqot obyekti:

Tadqiqot uchun Tabiiy fanlar fakultetining biologiya va kimyo yo'nalishi 1-kurs

talabalari hamda Chet tillari fakulteti talabalari tanlab olindi. Jami 120 nafardan ortiq talaba kuzatuv ostiga olindi.

Biz tadqiqot jarayonida o'rganib chiqilgan mobil ilovalar.

Duolingo: Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) elementlari orqali lug'at boyligini oshirish uchun.

2. Quizlet: Mazkur ilova yangi so'zlarni yod olishda juda ham foydali.

3. Coursera va British Council: eshitib tushunib olish va matnlarning asosiy tahlili uchundur

4. ChatGPT (AI): gaplarning nafaqat gramatik tuzilishini balki so'zlashuv ham olib borsa bo'luvchi ilova .

Tadqiqotning davrlari:

•Boshlang'ich davr: O'quvchilar orasida diagnostik test o'tkazish bilimlarini bilish uchun .

•Asosiy davr : O'quv jarayoni davomida ilovalardan foydalanish, va erkin so'zlashuvni oshirib borish.

• Tahlil davri: Barcha olingan natijalarni tahlil qilish va talabalardan so'rovnoma olish.

ASOSIY QISM

1. Raqamli platformalarning ta'limiy funksiyalari

Raqamli platformalar ingliz tili darslarida bir necha fundamental funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, bu individuallashtirish. An'anaviy darslarda o'qituvchi o'rtacha bir darajaga asoslanib dars o'tishga majbur, biroq raqamli platformalar har bir talabaga o'zining o'zlashtirish tezligida (pace) harakat qilish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan platformalar talabaning xatolarini real vaqt rejimida tahlil qilib, aynan o'sha zaif nuqtalarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni takroran taqdim etadi.

2. Motivatsiya va Gamifikatsiya

Tadqiqotimizning muhim qismi talabalar rag'batini g'ayratini ko'tarishga qaratilgan qaratildi. Chet tili bo'lmagan yo'nalish talabalari biologlar, kimyogarlar uchun ingliz tili ba'zan murakkab va "begona" fan sifatida ko'rinadi. Raqamli o'yinlashtirish elementlari bu to'siqni olib tashlaydi. Duolingo yoki Kahoot kabi dasturlarda ballar yig'ilish, ligalarda qatnashish va "yutuqlar" tizimi talabalarda raqobatbardoshlik ruhini uyg'otadi.

3. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda AI va Chatbotlar

Bugungi kunda sun'iy intellekt (AI) talabalarning eng katta muammosi bo'lgan "gapirishdan qo'rqish" muammosini hal qilmoqda. Talabalar chatbotlar bilan muloqot qilganda o'zlarini erkin his qiladilar, chunki AI ularni tanqid qilmaydi yoki xatosi uchun past baho qo'ymaydi. Bu esa Stephen Krashenning "Affektiv filtr" nazariyasiga mos keladi: stress darajasi qancha past bo'lsa, til o'zlashtirish shuncha yuqori bo'ladi.

4. Andijon davlat universiteti misolida tahlil

Andijon davlat universiteti o'qituvchilari ko'magida o'tkazilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalardan muntazam foydalanish talabalarning fanga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Tabiiy fanlar fakulteti talabalari uchun ingliz tilidagi ilmiy terminlarni o'rganishda Quizlet platformasi eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

NATIJALAR

Olib borilgan ishlar hamda statistik tahlil asosida koplal natijalar oldik . Talabalar raqamli platformalar orqali emotsiyasi oshib borishi va o'yinlar yordamida dars tayyorlagan talabalarning yangi so'zlarni o'zlashtirish darajasi an'anaviy lug'at yodlash usulidan foydalanganlarga qaraganda 35 foizga yuqori bo'ldi.

Inobatga olib o'tishimiz keraki, talabalar ichida platforma yordamida chet tillarini o'rganish, o'quvchilar orasi 45foizga ortib borishi kuzatilgan.Asosiy kulayligi shundaki

o'quvchilar darsdan bosh vaqtlarida o'z rejalari asosida shug'ulanishi katta qulaylikdir.

Talabalar orasida so'rovnoma o'tkazilib jami 63ta so'rovnomadan 39tasi talabalar ilovalarning ishlatish vaqti qulayligi haqida yozib qoldirishkan. So'rovnomalarning deyarli barchasi ijobiy fikirlar bilan yozilgan bo'lib 4 taraflama til darajasini oshirishga hizmat qilayotkani ko'rsatilgan.

MUHOKAMA

Paqamli platformalarning ingliz tili darslaridagi samaradorligi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri bir necha fundamental pedagogik hamda psixologik jihatlar bilan asoslanadi. Tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilar ekanmiz, raqamli transformatsiyaning bir necha muhim qirralarini alohida ta'kidlash lozim:

Ta'limning shaxsiylashtirilishi va kognitiv yuklamani boshqarish

An'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi o'rtacha bir o'zlashtirish darajasiga tayanib dars o'tadi, bu esa guruhdagi kuchli talabalarning zerikishiga, bo'sh o'zlashtiruvchi talabalarning esa mavzudan uzilib qolishiga olib keladi.

Affektiv filtrning pasayishi va psixologik qulaylik

S. Krashenning "Affektiv filtr" nazariyasiga ko'ra, talabada hayajon, qo'rquv va o'ziga ishonchsizlik yuqori bo'lsa, til o'zlashtirish ko'rsatkichi pasayadi. Tahlil qilish jarayonida talabalar jonli muloqat davrida hato talafuz qilishdan qorquvi borligi aniqladik. Lekin talaba raqamli platformalardan foydalanganda uning qorquv hisi yoqligini kuzatik, bu esa o'z navbatida talabalar ortasida erkin nutqning rivojlanishiga hizmat qiladi, va muqamal kompetensiyalar shakilanib boradi.

Gamifikatsiya – bu oddiy oyin ko'rinishidagi ilova bo'lib biroa yangi so'z yod olishda muhim ahamiyatga ega.

Andijon davlat universiteti talabalari bilan olib borilgan tahlilimizda Quizlet va Kahoot dars jarayonida foydalanilganda o'quvchilar orasida uyg'oqlikni va dasrga bo'lgan qiziqishlarini keskin ortishiga sabab bolgan. Bu kabi yangi uslublar yordamida talabalar orasida qoshimcha reyting ballar tashkil qilingan, bu ballar o'z o'rnida talabaning intilishiga sabab bo'ladi va vazifalarni bajarishida berilgan rag'bat ko'makchi bo'ladi.

Talabalar ichida autentik muhit tashkil qilishi yani dam olish kunlarisiz 24soat ichida yangi darslarni o'zlashtirish va mustahkamlash imkoniyati. British Council yoki Coursera kabi resurslar talabaga nafaqat darslikdagi va jummalarni, balki jonli ingliz tilidagi dialektlar, slenglar va madaniy kontekstlarni o'rgatadi. Eng muhimi, ta'lim olivchilar auditoriyasi devorlari bilan cheklanib qolmaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijasi olaroq jami sorovnomaning 58ta ishtirokchisi mobil ilovalardan asosan transport vositalarligida yoki bekata kutish vaqtida foyladalanishi aytishkan, bu shuni takidlaydiki har bir talaba o'zining bosh vaqtida ihtiyor etilgandek foydalanishi katta afzaliklardan biri.

Mobil platmormalar talabalarni vazifalarini osonlashtirishga hiznat qilme balkim ularni yangi bir talqin o'tkazadi. Bulardan kelib chiqib ustoz va murabiylar asosiy malumot olish uchun baza emas, yo'naltiruvchi shaxsga aylanishgan. Yani fasiliatator ustoz talaba esa mentor rolida. Yana bir katta afzaligi o'qtuvchi dars davomida induvidual so'zlashuvga sabab bo'ladi, bu vaqtda boshqa barcha talabalar mobil ilovalarda diagnostik test yoki so'zlarning tarjimali holatda o'rganishi mumkun.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xozirgi vaqtda platformalar chet tilarini jumladan ingiliz tilini o'rganishda asoiy resurslardan biri bolib kelmoqda. O'tkazilgan tahlilar davomida shularni xulosa qilsak bo'ladi:

- Raqamli texnologiyalar talabalardagi qorquvni yengishda psixologik ko'makchi bo'lib hizmat qilayapti

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida olib borilayotgan islohotlar yangi o'sib kelayotkan yosh avlodlar uchun platmormalarning afzaligini oshirishga qaratilgan .

- Talabalarning qoldirilgan darslarini o'zlashtirishi mustaqil oson usuldan o'rganishi uchun "Blended Learning"(Aralash ta'lim) modeli yaxshi resuslardan biri.

Amaliy tavsiyalar:

1. OTMlarda har bir fan uchun maxsus raqamli kurslar (Moodle yoki Google Classroom) bazasini yanada boyitish.

2. O'qituvchilar orasida ham platmormalarning ishlash tizimi boyicha o'quv seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.

3. Sun'iy intellektga yordamida individual dars mashg'ulotini (AI tutors) dars rejasiga integratsiya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori.
2. Motteram, G. Innovations in learning technologies for English language teaching. British Council, 2013.
3. Warschauer, M. Computer-Assisted Language Learning: an Introduction. Multimedia Language Teaching, 1996.
4. Qambarova, N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent, 2019.
5. Azizxo'jayeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
6. Yo'ldoshev, J. G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2010.
7. Benson, P. Teaching and Researching: Autonomy in Language Learning. Longman, 2001.